Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

CHET TILINI O'QITISH METODIKASIDA ZAMONAVIY METODLAR

Baxridinova Nargiza

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti katta o'qituvchisi

Habibova Fayyoza

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola xorijiy tillarni o'qitish metodikasi haqida, uning fan sifatida rivojlanishi hamda tarixi, chet tillarini o'rgatish metodikasida qo'llanilayotgan zamonaviy metodlar turlari va ulardan amalda qo'llanilishi borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar: malaka, didaktika, innovatsiya, ijodiy fikrlash, bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ijtimoiy tafakkur, lug'at boyligini oshirish, kolloboratsiya, 5E metodi ta'rifi.

MODERN METHODS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY

Abstract: This article discusses the methodology of foreign language teaching, the history of its development as a science, the types of modern methods used in foreign language teaching methods and their use.

Key words: qualification, didactics, innovation, creative thinking, developing knowledge and skills, social thought, expanding vocabulary, collaboration, the description of 5E method.

Kirish

Bugungi kun ta'limi mutlaqo yangicha va o'zgacha bo'lgan pedagogikani rivojlantirdi. Ta'limdagi innovatsion loyihalar va metodlar buning yaqqol isbotidir. Innovatsiya- bu inglizcha so'zdan olingan bo'lib, "yangilik olib kirish" degan ma'noni anglatadi. "Yangilik kiritish (innovatsiya) nazariyasi" ning eng mashhur asoschilaridan biri Jozeph Schumpeter hisoblanadi. U innovatsiya haqidagi qarashlarini 1911-yilda chop etilgan kitoblarida to'liq bayon qilgan. Innovatsiya nafaqat sanoat va shu kabi sohalarda, balki ta'limga ham keskin burilishlar va keng yangiliklar olib kelmoqda. Innovatsiya- yangi go'ya, usul yoli mahsulotni yaratish va uni amaliyotga tadbiq etish jarayonidir. Innovatsiyaning maqsadi mavjud muammolarni samaraliroq hal qilish, sifatni oshirish va o'sishga erishishdir.

Shu o'rinda, Stiv Jobsning innovatsiya haqidagi fikrini ta'kidlab o'tish foydadan yiroq bo'lmasdi. Zero, " Innovatsiya yetakchi bilan ergashuvchini ajratib tuardi" deydi u. Aynan shu ijobiy rivojlanish bizning yurtimizga ham kirib kelgan va o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Buning dalili sifatida, Prezidentimizning 2021-yilni "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligi yili" deb nomlaganlari esa yoshlarning ma'suliyatini yanada oshirdi. Ta'lim sohasiga bo'lgan e'tiborning kuchaytirilishi, yangi va zamonaviy texnologiyalarning o'qitish tizimiga joriy etilayotganligi, chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishning oshishi esa yuqoridagi islohotlarning bevosita natijasidir desak mubolag'a bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi rivojlanib borayotgan kishilik jamiyatida xorijiy tillarni bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Biror chet tilini mukammal darajada bilish, shu til egalari bilan samaraliroq muloqotlar olib borishni ta'minlaydi. Chet tillarni bilish nafaqat ma'lum bir davlatda, balki boshqa davlatlarda ham ko'proq karyera eshiklarini ochmoqda. Shu sababli, so'nggi yillarda chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortdi. Mamlakatimizda yoshlar asosan 3 tilni: ona tili, lokal (mahalliy) til va global (dunyoviy)

til o'rganishadi. Yurtimizdagilarning ko'pchiligi o'zbek tilini, lokal tili misolida esa rus tilini(qo'shni davlatlar va qardosh xalqlar bilan muloqot vazifasini o'taydi), dunyo darajasidagi til sifatida esa ingliz tilini o'rganib kelishmoqda. Bu tillarni bilish orqali esa ko'plab xalq va davlat aholilari bilan kommunikatsiya qilishga musharraf bo'lamiz.

Xorijiy til- bu ma'lum bir davlat va uning xalqi bir-biri bilan muloqot olib boradigan til hisoblanadi. Tillar kelib chiqishi va mamlakatlarning joylashuv o'rniga ko'ra Sharqiy (Osiyo) tillari va G'arbiy (Yevropa) tillari guruhlariga bo'linadi. Bundan tashqari, kelib chiqishiga ko'ra o'xshashliklari, bir-biriga yaqin bo'lgan sinflarga ham tasnif qilinadi va turli-turli til sinflari va oilalariga ajralib boradi, o'z navbatida. Osiyo tillaridan xitoy, yapon, koreys, arab, turk, hind va fors tillari yoshlarimiz tomonidan katta qiziqish va maqsadlar bilan o'rganilib kelinayotgan bo'lsa, Yevropa tillaridan ispan, ingliz, fransuz, nemis tillariga ham talab yetarlicha ko'p.

Ayni paytda, tilni samarali o'qitish va tilni samarali o'rganish bir-biridan tubdan farq qiladi. Tilni samarali o'qitishda o'qituvchi, uning metodikasi va darslarni qay tarzda o'quvchiga yetkazib berishi muhim sanaladi. Tilni samraliroq o'rganishda esa, o'quvchining til o'rganishga doir tajribasiga bog'liq bo'ladi. Tilni aniqroq o'rganish uchun esa to'g'ri metodlardan qay darajada foydalanilganligi, qaysi usullardan foydalanilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Chet tillarini samarali usulda olib borish esa mohirlik bilan ishlab chiqilgan metodikaga va uning nazariyasiga tayanadi. Nazariyaning amaliyotga tadbiq etilishi esa til o'rganish jarayonini yanada yaxshiroq va kuchliroq tashkil etishga sabab bo'ladi va xorijiy til o'rganuvchilarda katta qiziqish uyg'otadi.

Metodikaning predmeti - chet tili predmeti orqali ta'lim- tarbiya berish jarayoni va uslublari, chet tilini o'rgatish ilmi va ustoz va shogird faoliyatini o'rganish metodikaning predmeti hisoblanadi.

Metodikaning asosiy tushunchalari esa metod, usul va prinsip hisoblanadi. Metodologiya o'z oldiga 'qanday o'rgatamiz ?' degan savolni qo'yib unga yechim topishga harakat qiladi. Metod so'zi esa grekcha- lotincha " metados" so'zidan olingan bo'lib, ma'lum maqsadga olib boruvchi yo'l, uslubiyat degan ma'nolarni bildiradi. Metodika bu dars jarayoni bilan bog'liq tushunchani anglatadi. Bundan tashqari metodika o'quv materiallarini tuzish, tashkillashtirish va guruhlash kabi tushunchalarni ham o'z ichiga oladi. Yevropada esa " metodika" tushunchasi GFR (Germaniya Federativ Respublikasi) tomonidan XIX asrning 60-yillaridan beri qo'llanib kelinmoqda. Shunga ko'ra, didaktika ta'lim mazmuni nima o'rgatiladi? Metodika esa ta'lim usullari qanday o'rgatiladi?

Chet tillarni o'rganish faqat aqliy tarbiya vositasi emas, balki o'zga madaniyatning ta'limiy boyliklari va qadriyatlari bilan tanishish va ularni o'z madaniy hayotiga tadbiq etish orqali shaxsning shakllanish jarayoni hisoblanadi. Yevropa ta'limotida esa xorijiy tillarni o'rganish uzoq vaqt imtiyoz sifatida qaraldi va jamoat maktablarida imtiyozga ega bo'lgan shaxslarni tarbiyalash vazifasi old qatorlarga qo'yilib kelindi.

Chet tili o'qitish metodikasi fani 200 yildan ortiq tarixga ega. Bu vaqt mobaynida chet tilini o'qitishga turlicha munosabat bildirilganini ko'rishimiz mumkin. Har qanday fanning o'qitilish uslubi , ya'ni netodikasi bo'lishiga qaramasdan to'liqligicha nazariya hisoblanmaydi. Xorijiy tillarni o'qitish xususiy va umumiy tilshunoslik tajribalari va tadqiqotlariga tayanadi. Tilshunoslik – bu til hodisalarining kelib chiqishi va rivojlanishini o'rganish bilan shug'ullansa, metodika fani esa bu hodisalardan o'rinlicha foydalanish uchun nima qilish kerak degan savolni olg'a suradi. Ta'kidlash joizki, metodika faniga oid eng durdona va foydali kitoblarning barchasi tilshunoslar tomonidan yozib qoldirilgan. Tilshunoslik va metodika fanlari ba'zi bir jihatlari bilan bir-biriga juda yaqin va o'xshash. Misol sifatida, XIX asrning mashhur tilshunoslari va ularning shogirdlari hamda izlanishlarini ko'rib

chiqamiz. Rossiya tilshunosligida va chet tilini o'qitish metodikasi bo'yicha buyuk tilshunos olim I.A.Bodeun-de-Kourtene va uning izdoshlari faoliyat yuritgan. Chet tilini o'rgatish metodikasiga nisbatan psixologlar ham o'zaro munosabat bildirishgan. Metodika va psixologiyaning o'xshashligi haqida Artemov fikr bildirgan. Uning fikricha psixologiya metodikaga o'rganish uchun obyekt va material beradi. Psixologiya metodika orqali ma'lumotlar qanday o'zlashtirilayotganini o'rganadi. Chunki dars mobaynida, o'qituvchi ham, o'quvchi ham ma'lum bir psixologik holatni boshdan o'tkazadi va ta'sirlanadi.

Metodikani o'rganish mobaynida ayrim tadqiqotchilar metodikani san'at deb ham ataydilar. Tadqiqotchilar fransuz metodisti Penlashni fikrini keltirib o'tadi. Penlashning fikricha, "yaxshi" va "yomon" metodlar bo'lmaydi, aksincha, "yaxshi" va "yomon" o'qituvchilar bo'ladi.

Har bir sohada o'z tushunchalar tizimi mavjud. Chet tilini o'qitish metodikasida o'z sistemasi, metodi, prinsipi, vositasi va usuli mavjud. Shu o'rinda, 5E modelini ko'rib o'tamiz.

5E modeli- bu o'quv jarayonida faol o'rganishni rag'batlantiruvchi pedagogic yondashuv bo'lib, beshta bosqichdan iborat.
1. Engage (Jalb qilish)- O'quvchilarning qiziqishini uyg'otish va mavzu bilan bog'liq mavjud bilimlarni aniqlash. Bu bosqichda savollar, muammolar yoki tajriba orqalin diqqat jamlanadi.

2. Explore (Tadqiq qilish)- O'quvchilar mustaqil yoki guruhda tajriba qilishadi, kuzatuv olib borishadi va yangi bilimlarni o'zlari kashf qilishadi.

3. Explain (Tushuntirish) – O'quvchilar o'z kuzatuvlarini tushuntiradilar, o'qituvchi esa ilmiy asoslangan tushunchalarni aniqlashtirib beradi.

4. Elaborate (Kengaytirish)- O'rgangan bilimlarni yangi holatlarda qo'llash orqali chuqurlashtirish. Amaliy mashqlar, muammoli vazifalar bu bosqichda foydali bo'ladi.

5. Evaluate (Baholash) – O'quvchilar va o'qituvchi bilim va ko'nikmalarni baholaydi. Bu yozma testlar, prezentatsiyalar yoki boshqa baholash vositalari orqali bo'lishi mumkin.

Bu model ko'proq STEM (Science, Technology, Engineering, Math) va chet tilini o'rgatishda qo'llaniladi.

Chet tili o'qitish metodi- bu chet tilini o'qitishning amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi va maqsadlariga erishuvni ta'minlovchi muallim va o'quvchi faoliyati tushuniladi.

Bunda chet tilini o'rgatishda tarjima metodi, to'g'ri metodi, ongli-qiyosiy metodi, an'anaviy metodi, intensive metodi va boshqalar muhim hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jamiyat va tabiat o'zaro bog'liq va uzluksiz aloqada rivojlanadi. Fanlar ham , o'z navbatida bir-biridan ajralgan holda mavjud emas.

Hodisa va predmet ayni zamonda bir qancha fanlarning tadqiqot manbasi hisoblanadi. Misol uchun, "til" ijtiomoiy hodisasini tilshunoslik, psixologiya va ta'limshunoslik (didaktika) o'z nuqtayi nazaridan kelib chiqib o'rganadi. Chet tili metodikasi deganda tilni o'rganishga qaratilgan metodlar va metodik usullar yig'indisi tushuniladi hamda mustaqil fan sifatida ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Chet tili o'qitish metodikasi didaktika bilan uyg'un, o'zaro bog'langan holda rivojlanib kelgan. Barcha o'quv fanlarining o'qitish nazariyalari didaktika faniga asoslanishi , undan bilim olishi shubhasiz barchamizga ma'lum. Chet tili o'qitish metodikasi ham didaktikaga asoslanadi.

“ Metod ” atamasi bilim, malaka va ko’nikmalarni shakllantirish, o’quvchilarda ijodiy fikrlash, ijtimoiy tafakkur yaratish yo’lidagi pedagog va o’quvchining ish usuli ma’nosini bildiradi. Ushbu atama son-sanoqsiz ta’riflarga ega. Chet tillarini o’qitishda metodlarni tadbiq etish ancha uzoq davrlardan boshlangan, prinsiplar tushunchasi esa nisbatan yangiroq atama sanaladi. Tarixda metodlar 4 guruhga birlashtirilib, “tarjima”, “to’g’ri”, “qiyosiy” va “aralash” deb qabul qilingan.

I.V.Raxmanov metodlar tarixini chuqur o’rgangan. Tarjima metodi, asosan, ikki ko’rinishda: matn-tarjima, grammatik-tarjima ko’rinishlarida bo’lgan. Grammatik mashqlar esa o’quvchilarda tafakkurni o’stirish maqsadida bajartirilgan.

Noto’g’ri rasm metodi. Maqsad: Chet tilini o’rganayotgan bolalarga ijodiy fikrlashni rag’batlantirish va ijtimoiy norma haqida mulohaza yuritishni o’rgatish. Bu mashq ijodkorlikni va ijtimoiy norma haqida mulohaza yuritishni rivojlantiradi. Ushbu o’yin orqali bolalarda quyidagi ko’nikmalar shakllantiriladi:

- yaratish ;

- sharhlash ;

- tahlil ;

-ijtimoiy tafakkur .

O’tkazilish bosqichlari : vazifani tushuntirish

- Ijodiy jarayon ;

- Muhokama qilish ;

- Variantlar bilan ishlash ;

Yakun: O’rganilgan hissiyot va ijtimoiy konteptlarni qisqa jumla yoki rasm orqali mustahkamlanadi.

Chet tili ta’limidan ko’zlangan maqsad yangicha talqin orqali , asosan , pragmatik tilshunoslik tadqiqotlari natijalariga tayaniladi. Tilshunoslik bu sohani tilga oid shakl deb emas, balki inson faoliyati mahsuli deb tahlil qiladi. Chet tili ta’limotining asosiy yo’nalishlarini belgilab beruvchi vazifasi o’quvchilarga kommunikatsiya qilishni o’rgatish. Shu tarzda metodika fani fan sifatida shakllana bordi. Hech qaysi tilni uning metodikasini to’liq o’zlashtira turmay o’rgana olmaymiz. Kommunikativ didaktika esa quyidagilardan tashkil topgan :

- suhbatlashish va guruh bo’lib ishlash ;
- o’quvchilarni faollashtirish va tildan erkin va ijodiy foydalanishga undash ;
- mashqni tashkil qilish va harakat ko’lamini kengaytirish ;
- kundalik nutqiy muloqotni hayotiy vaziyatda o’rganish .

Kommunikativ didaktika.

Kommunikativ didaktika tinglab tushunish materiali hisoblanib, tabiiy nutqiy vaziyatlardan foydalanishni birinchi o’ringa qo’yadi. Axborotni tinglab tushunish bo’yicha rejalar o’zgardi. Tinglaganini hikoya qilish ham boshqacha tus oldi.

Chet tili o’qitish metodikasida hozirgi kunda madaniyatlararo muloqot amaliyoti hisoblanadi. Chunki har bir til o’zining madaniyati va hayotini o’zida aks ettiradi. Bunda pedagoglarning asosiy

vazifasi o'quvchi va talabalarning kommunikativ va muloqot qobiliyatlarini o'stirishdan iborat bo'ladi. Shu sababli kishilarni samarali muloqot qilishga undovchi o'quv qo'llanmalar va metodikalarni tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. So'z kishilar muloqotini bir-biriga bog'laydi. Bu jarayonda kommunikativ mashg'ulotlar, zamonaviy texnologiyalar, prinsiplar va davomiylik ta'minlansa, talim sifati va unumdorligi oshib boraveradi. O'qituvchilarning darslarni va ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli olib borishlaridan nafaqat psixologik bilim, fan pretmetidan tashqari, muloqot qila olish ko'nikma va malakasi hamda kommunikativlilik zarur sanaladi.

Tug'ilgan paytimizdan boshlab biz muloqot ko'nikmasini egallashni boshlaymiz. Lekin ayrimlar voyaga yetganlaridan keyin ham yetarlicha muloqot qobiliyatini shakllantira olmaydi va foydalana olmaydi. Pedagog esa muloqot malakasiga ko'ra, o'quvchining qiziqishlarini aniqlaydi va o'quv metodikalarini shakllantiradi. Pedagogik muloqot o'quvchilar tafakkurida shaxslar o'rtasidagi muloqot tushunchasini shakllantirishga olib keladi. Muloqot- ijtimoiylashuvning belgisi. Shu o'rinda pedagogic muloqot aslida nima ekanligini tushunish darkor. Aslida pedagog tushunchasi "oldinda yo'l boshlovchi" degan ma'noni anglatishi bejiz emas.

Pedagogik muloqot- bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat hisoblanib, hamkorlik sifatida axborot almashishga asoslanadi. Axborot pedagog tomonidan o'rganuvchilarga ham verbal (nutq orqali), ham noverbal (vositalar orqali) yetkaziladi. Bu jarayonda o'qituvchi asosiy jarayonni olib boradi va o'quvchilarga namuna vazifasini bajaraishi talab etiladi. Bu esa pedagogning kommunikativ mahoratini belgilab beradi.

O'qituvchi kommunikativ madaniyati tarkibiga quyidagilar kiradi :

1. Kommunikativ mahorat
2. Pedagogning muloqot metodlari
3. Pedagogning muloqot madaniyati
4. Pedagogning kirishuvchanligi

O'z navbatida kommunikativ ko'nikmalarni quyidagi bo'limlarga ajratish mumkin :

1. Ijtimoiy- psixologik ko'nikmalar
2. Axloqiy- estetik ko'nikmalar
3. Texnologik malaka va ko'nikmalar

Xulosa

Chet tilini o'rganish keng qamrovli soha hisoblanib, bu jarayonda o'rganuvchilar bu jarayonda turli psixologik bosqichlarni boshdan o'tkazadi. Bu jarayonda o'z tili va o'rganilayotgan til bir-biriga qiyoslanadi. Zamonaviy texnologiyalar ona tili va chet tilini birgalikda taqqoslab o'rganishga imkon beradi. Metodika chet tilini o'rganishda muhim hisoblanadi. Kommunikativ didaktika esa chet tilini o'rganishda muhim sanaladi. Metodika fani didaktika fani bilan bog'liq bo'lganligi sababli, chet til o'rganish mobaynida kommunikativlikka asoslanadi va kommunikativ didaktika metodi yuzaga keladi. Chet tilini o'rganish natijasida o'zga mamlakat madaniyati ham o'rganiladi. Barcha bilimlarni o'zlashtirish uchun mashq qilish eng yaxshi usul hisoblanadi. Mashq qilish nafaqat chet tili o'rganish ta'limida balki barcha soha bilimlarini o'rganishda ham ijobiy natija ko'rsatadi. Darsni samarali tashkil etish uchun pedagog faoliyati va zamonaviy texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Xorijiy tillarni o'rganish jarayonida natijaga erishish uchun zamonaviy pedagogik axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilimlarni o'rganish lozim.

References

1. Maxmudov , Q. S. O. G. L., Shayxislamov , N . Z . O . G . L ., & Jo, B . B . O . G . L . (2020). O'zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o'rni va ularning turli jihatdan tasniflanishi. Science and education, 1(Special Issue 3).
2. Joraboyev, B . B . O . (2021). Using authentic materials on english lessons. Academic research in educational sciences, 2(2).
3. Samarova, S (2018). Forming Creative Vision of Person as Universal Method Enhancing Creativity. Eastern Europe Scientific Journal , (6).
4. Рахманова М К (2019) Изучение стратегии обучение. Прииоритетные векторы развития промышленности и сельскогохозяйства материалы II междурародной научно-практической конференции 7.95-101.
5. Rahmanova M. K. (2020). Ta'lim jarayonida o'quv munozaralarni tashkil etishda o'qituvchining pedagogik mahorati, ijodkorligi va faolligi . " Oriental Art and Culture" Scientific- Methodical Journal 4(4), 68-73.
6. Shokarimova, K. A. (2021). The way of improving reading and writing skills during the lessons. Academic research in educational sciences, 2(2).
7. Ражапова И. Т. (2019). Методика обучения видам русского глаголав. Илм сарчашмалари. Илм сарчашмалари.